

MAKTAB O‘QUVCHILARIDAGI EMOTSIONAL HOLATLAR VA ULARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Obloqulova Malika Fattoqul qizi

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani 35-maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada maktab o‘quvchilaridagi emotsional holatlarning shakllanishi, ularning kasb tanlash jarayoniga ta’siri hamda kasb-hunarga yo‘naltirishning psixologik omillari yoritiladi. O‘quvchilarning qiziqishi, qobiliyati, ichki motivatsiyasi va ruhiy holatini hisobga olish kasbiy yo‘nalishni to‘g‘ri belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: emotsional holat, kasb tanlash, kasb-hunarga yo‘naltirish, motivatsiya, qobiliyat, psixologiya, o‘quvchi.

KIRISH

Bugungi kunda o‘quvchilarni kasb-hunarga to‘g‘ri yo‘naltirish ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Kasb tanlash insonning kelajak hayoti, ijtimoiy mavqei va ruhiy qoniqishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli bu jarayonda o‘quvchilarning emotsional holatini chuqur o‘rganish muhimdir.

Emotsional holat insonning ichki hissiy kechinmalari va ruhiy kayfiyatini ifodalaydi. O‘smirlik davrida hissiyotlarning o‘zgaruvchanligi kuchayadi, bu esa kasb tanlash qaroriga ham ta’sir qilishi mumkin. O‘ziga ishonchsizlik, xavotir yoki stress holati ayrim o‘quvchilarning o‘z qobiliyatini to‘liq namoyon etishiga to‘sqinlik qiladi.

Kasb-hunarga yo‘naltirish jarayonida psixologik omillar muhim rol o‘ynaydi. Eng avvalo, o‘quvchining qiziqishi va moyilligini aniqlash zarur. Inson qiziqqan faoliyat bilan shug‘ullanganda ko‘proq muvaffaqiyatga erishadi va ruhiy qoniqish hosil qiladi.

Shuningdek, qobiliyat va individual xususiyatlarni hisobga olish ham muhimdir. Har bir o‘quvchining intellektual salohiyati, xarakteri va temperament turi turlicha bo‘lgani sababli kasb tanlashda individual yondashuv talab etiladi.

Psixologik diagnostika kasbga yo‘naltirishda samarali vositalardan biri hisoblanadi. Turli testlar va suhbatlar orqali o‘quvchining qiziqishlari, qobiliyati va emotsional barqarorligi aniqlanadi.

Ota-onalar va o‘qituvchilarning bosimi ba’zan o‘quvchilarning noto‘g‘ri kasb tanlashiga sabab bo‘ladi. Shu sababli o‘quvchining shaxsiy fikri va ichki istaklarini inobatga olish zarur.

Emotsional jihatdan qo‘llab-quvvatlangan o‘quvchi o‘z imkoniyatlariga ko‘proq ishonadi. Rag‘batlantirish, motivatsion suhbatlar va ijobiy muhit o‘quvchilarning kasbiy o‘zligini shakllantirishga yordam beradi.

Maktab psixologi bu jarayonda muhim o‘rin tutadi. U o‘quvchilarning emotsional holatini kuzatib boradi, kasbiy qiziqishlarini aniqlaydi va ularga psixologik maslahat beradi. Shuningdek, kasblar haqida keng ma‘lumot berish, turli kasb egalari bilan uchrashuvlar tashkil etish o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi va ongli tanlov qilishiga yordam beradi. Ma‘lumotlarda ko‘rsatilishicha, emotsional holatlarning fiziologik mohiyati katta yarim sharlar po‘stining va po‘stloqosti tizimi markazlarining funksiyasigina emas, balki ular: a) miya mexanizmlari faoliyatini faollashtiruvchi retikulyar formatsiyaning, b) miya talamusi (ko‘rish do‘ngliklari)ning, gipotalamusining (do‘nglik osti qismining), d) yarim sharlar yangi po‘stlog‘i orasidagi limbik sistemaning funksiyalaridir. Emotsional holatlar uchun po‘stloqosti tugunchalarining tarkibiga kiruvchi (miya katta yarim sharlarining oq moddasi bilan birlashuvchi kulrang modda yig‘indisi) markazlar ham muhim ahamiyatga ega. Agarda miya katta yarim sharlari po‘stlog‘i harakatlarni birlashtirib, sezgilarni va sa‘y-harakatlarni nozik ifoda qilib tursa, miya formatsiyalari tashqi hamda ichki muhitda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarga organizmning javob reaksiyalarini boshqaradi.

Ma‘lumotlarga qaraganda, miya katta yarim sharlari po‘stlog‘i shikastlansa, tashqi olamdan hamda ichki organlardan keladigan qo‘zg‘ovchilarning nozik tahlil qilinishi zaiflansa ham emotsional holatlar saqlanib qolaveradi. Masalan, hayvonlar limbik tizimga, do‘ng osti (gipotalamus) qismiga, ko‘rish tepaliklariga yo‘nalgan elektr qo‘zg‘atuvchilarga, retikulyar formatsiyasining qo‘zg‘alishlariga xursandlik yoki diqqinapaslik, darg‘azablik yoki qo‘rqoqlik, lazzatlanish yoki azoblanish, rohatlanish yoki ko‘ngilxijillik sifatida javob reaksiyasi hosil bo‘ladi.

Yuqorida ta‘kidlanganidek, ijobiy va salbiy his-tuyg‘ularning shunga o‘xshash markazlari bilan miyaning boshqa bo‘limlarida joylashganligiga qaramay, shartli ravishdagi rohatlanish va azoblanish markazlari ham mavjuddir. Emotsiyalar bir-biriga yaqin masofada faoliyat ko‘rsatadilar. Tajribada qo‘sh (juft) markazlaridan birida elektrod bilan hosil qilingan qo‘zg‘atish ehtiyojidan kelib chiqqan holda salbiy yoki ijobiy emotsiyadan faqat bittasini vujudga keltirgan, xolos. Ba‘zida yondosh joylashgan markazlarda qo‘zg‘alish tarqalgan bo‘lsa, u holda ambivalent yoki ikkiyoqlama reaksiya ro‘yobga chiqadi. Shartli ravishda nomlangan markazlar (rohatlanish, azoblanish) bir-biriga yaqin joylashishiga qaramasdan, har xil tuzilishga ega ekanligi aniqlangan. Ma‘lumotlarning ko‘rsatishicha, «azoblanish» markazlari miyaning turli bo‘limlarida joylashsa-da, lekin ular yagona tizim bilan boshqariladi. Salbiy emotsiyalardan farqli o‘laroq ijobiy his-tuyg‘ular va «rohatlanish» markazlari bir-birlari bilan jips aloqaga ega emas. Ta‘kidlab o‘tilgan mulohazalar, emotsiyalar juft hamda qarama-qarshi xususiyatga ega ekanligidan dalolat bermoqda. Shuning uchun

har qaysi emotsiya qarama-qarshi turkumga ega deb qat'iy ishonch bilan aytish mumkin, jumladan, sevgi-nafrat, yoqimli-yoqimsiz, xotirjamlik-bezovtalanish, mas'uliyatlilik-loqaydlik va boshqalar.

Kasb jamiyatning mehnatga layoqatli a'zolarini ijtimoiy tashkillashtirishning alohida shakli bo'lib, bunda a'zolar faoliyatining umumiy turi va kasbiy ongi bilan birlashgan. B.Shouning fikri bo'yicha kasb - mutaxassislarining chetdagi odamlarga qarshi fitnasidir. YE.A.Klimov o'z ishlarida bu borada bir necha ta'riflarni ilgari suradi. Nisbat batafsil ta'rif quyidagicha "Kasb - jamiyat uchun zarur va qadriyatli soha bo'lib bunda insondan jismoniy va ruhiy kuch talab etadi" bu kuchlar unga sarflangan mehnat o'rniga yashashi va rivojlanishi uchun muhim vositalar omili sifatida namoyon bo'ladi. Bu ta'rifni yanada batafsil yoritib, YE.A.Klimov kasbiy faoliyatning sifatli tarixiy rivojlanuvchi tizim va shaxsning o'zini namoyon etish sohasi deb ta'riflaydi. Yana bir ta'rifni keltiramiz. "jamiyat nuqtai nazaricha kasb bu kasbiy masalalar, kasbiy faoliyat shakllari va turlari, shaxsiy kasbiy xususiyatlari tizimi bo'lib, ular jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun muhim bo'lgan natija mas'uliyatlarni yetkazishni ta'minlab berishi kerak bo'ladi" nisbatan tor ta'rifni esa V.G.Makushin keltiradi, kasb - bu shunday faoliyatki, uning yordamida shaxs jamiyat hayotida ishtirok etadi va uning yashashi uchun moddiy vositalar asosiy manbasi bo'lib xizmat qiladi. Mavjud ta'riflarni umulashtirib, quyidagilarni xulosa qilish mumkin.

Mashhur rus psixologi K.K.Platonov mutaxassisning kasbiy tayyorligi bu o'zining muayyan kasbiy faoliyatini bajarishga qodir va tayyorgarlik ko'rgan deb hisoblovchi va uni bajarishga intiluvchi shaxsning sub'ektiv holatidir - deb hisoblangan. Mutaxassisning kasbiy tayyorligi murakkab ko'p darajali va ko'rinishli tizimli psixik shaklga ega bo'lib, birinchi navbatda odamning shaxsiy ko'rinishi asosiy o'rin egallaydi. Shu bilan birga, kasbiy tayyorgarlik mutaxassisda kerakli darajada jismoniy sog'liqni kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan jismoniy sifatlar shakllanganligi va rivojlanganligini talab qiladi. Chunki har qanday kasbiy faoliyat insonning qandaydir kuch jismoniy energiya sarflashini ko'zda tutadi.

Har bir shaxs turi ma'lum kasbiy muhitga yo'naltirilgan idealistik tur - moddiy buyumlar yaratishga texnologik jarayon va texnik qurilmalar, iqtidor - aqliy mehnatga, ijtimoiy - iqtisodiy mehnat bilan o'zaro aloqaga, konvensional aniq tuzilgan faoliyatga, ishbilarmonlik - odamlarga rahbarlik va badiiy - ijodga. har bir shaxs turi modeli quyidagi sxema bo'yicha tuziladi: maqsadlar, qadriyatlar, qiziqishlar, qobiliyatlar, istalgan kasbiy rollar mumkin bo'lgan yutuqlar, karera va boshqalar.

Odatiy bo'lmagan sharoitlarda balandlikda, suv tagida, yer tagida baland past darajalarda ishlash: havvos, o't o'chiruvchi va hokazo. Insonlar sog'ligi, hayoti uchun yuqori mas'uliyat sharoitida ishlash: moddiy qadriyatlar, bolalar boqchasi tarbiyachisi, o'qituvchi, tergovchi. Shartli belgilarni qo'llagan holda, kasblar dunyosi "xaritasini"

va ma'lum kasbning na'munaviy formulasini tuzish mumkin. Bu formula real kasbga nisbatan ham orzudagi kasbga nisbatan ham, qo'llanishi mumkin.

Mening kasbim

Kasblar guruhlari

Kasblar bo'limlari

Kasblar sinflari

Kasblar turlarini sinflash Bu kasbga yo'naltirish ishlari uchun mo'ljallangan. Bu tasniflashni o'rganib chiqqan V.E.Govrilov ijobiy tomonlari bilan birga kamchiliklarini ham ko'rsatib berdi. Masalan, bir guruhdagi kasblar ishchiga qarama - qarshi talablarni oldiga qo'yuvchi komponentlarni o'z ichiga oladi, bu esa kasbga layoqatlilik belgilarini aniqlashni qiyinlashtiradi. Tasniflashning yana bir kamchiligi shundaki, kasblar olami nihoyatda o'zgaruvchan, shunga ko'ra kasblarning mehnat mazmuni ham o'zgaruvchan xususiyatga ega. Bu esa kasblarni tizimlashga nisbatan noaniqlikni keltirib chiqaradi va kasbiy tanlovni kasbiy maslahat jarayoniga kirishni qiyinlashtiradi. Ma'lumki, kasbiy ta'limning barcha kasblar bo'yicha olib borib bo'lmaydi va kasbiy faoliyat turlarining murakkablik darajasi, sharoitlari, vositalari, mazmuni juda farqlanadi. O'quv kasblarning ma'lum belgilari, sifatlarini tasniflash va malaka darajalarini aniqlash bo'yicha ilmiy asoslangan tanlov lozim. O'quv kasblar ro'yxati buning natijasi bo'lishi kerak va shu asosda mutaxassislar tayyorlash shakllari aniqlanadi. Bu korxonalaridagi qisqa muddatli tayyorgarlik, kasb maktablarida yoki oliy o'quv yurtlaridagi o'qish bo'lishi mumkin.

Shaxsning muvaffaqiyat strategiyasiga yo'naltirilganligi. Shaxsning bozor iqtisodiyoti sharoitida bardoshligi. Professiografiyada ekologik, huquqiy va iqtisodiy madaniyat masalalari ham nazarda tutiladi. Maxsus psixofiziologik talablar bloki - ishchining kasbiy faoliyati jixatdan psixofiziologik xususiyatlariga qo'yiladigan talablarni aks ettiradi. Bunga tibbiy ko'rsatmalar, jinsiga, yoshga bo'lgan va sanitariya-gigienik talablar kiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, maktab o'quvchilaridagi emotsional holatlar kasb tanlash jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. To'g'ri psixologik yondashuv, individual qo'llab-quvvatlash va kasbiy yo'naltirish ishlari orqali o'quvchilarning kelajak kasbini ongli ravishda tanlashiga yordam berish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mukhamedov Gafurdjan Isroilovich, & Usarov Djabbar Eshbekovich. (2020). Technologies for the Development of Competencies in Physics in General Secondary Education using Multimedia Resources. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering, 9(3), 2677-2684.
2. Usarov Djabbar Eshkulovich, & Suyarov Kusharbay Tashbaevich. (2020). Developing

3. Pupils' Learning and Research Skills on the Basis of Physical Experiments. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(02), 1337-1346.
4. Maratov Temur Gayrat ugli (2019) Scientific theoretical problems of perfect human category in the psychology. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. 7(8). 16-22.
5. NJ Əshnaev, TG‘ Maratov, G Mirzaraximova. (2020). O‘zbek milliy kino san’ati va madaniyatida psixoprofilaktik xizmat tizimini joriy etish masalalari. Oriental Art and Culture 03. 156-165.
6. Ziyonet